



Volume: 01 Issue: 06 / 2021  
ISSN: 2181-2608

## Iqtisodiy Va Ijtimoiy Sohadagi Ustuvor Xalqaro Reytinglar Va Ularga O'zbekistonning Integratsiyalashuvi



Rasulov Akbar Nomozovich

Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Vafoeva gulruh Bahodir qizi

Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi

### Annotatsiya.

Maqolada iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi ustuvor xalqaro reytinglarva ularga O'zbekistonning integratsiyalashuvini ahamiyati, uni yuqori retenglarga kutarilish zarurligi, "xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish va uni amalga oshirishi shart-sharoitlari masalalari muxokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiyot, ijtimoiy soha, xalqaro reyting, indekslar, globallashuv jarayonlar, sanoatni rivojlantirish, makroiqtisodiy barqaror, iqtisodiy o'sish istiqbollar, tadbirkor, islohotlar, moliyaviy va texnologik resurslar, iqtisodiy hamkorlik.

Insoniyat taraqqiyoti, barcha sohalarda kechayotgan globallashuv jarayonlar, sifat va tarkibiy o'zgarishlar xalqaro hamkorlik va aloqalarni yangi bosqichga ko'tarish barobarida har bir mustaqil mamlakatning ushbu holatlarga yangicha qarashga, ular bilan birga odim tashlash vazifasini ko'ndalang qo'yemoqda. Bu esa, eng avvalo, o'sha mamlakatning jahon miyosidagi o'rni, xalqaro reyting va ko'rsatkichlarda tutgan mavqeい bilan belgilanadi.

Bugun hayotning har bir jabhasida yangilik va bunyodkorlik ishlari jadal sur'atlarda davom etmoqda. Tabiiyki, bunday yangilanishlar natijasi nafaqat xalqimiz hayotida, balki nufuzli xalqaro reyting va indekslar ko'rsatkichlarida ham o'z ifodasini topayotir.

Aytish kerakki, xalqaro reyting va indekslar har bir mamlakatning rivojlanish jarayonini o'zida namoyon etib, davlat boshqaruvi sifati, aholining turmush darajasi, inson huquqlari muhofazasi, tadbirkorlik faoliyati va xorijiy investorlar uchun qulay muhit, barqaror iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik kabi muhim jihatlarning ko'zgusidir. Bu jihatlar mamlakatimizdagi islohotlar mohiyatida ham mujassam. Bularning barchasi inson qadrini ulug'lashga, odamlarning hayotdan rozi va mammun bo'lib yashashini ta'minlashga xizmat qilishi bilan yanada teran mazmun kasb etadi.

Prezidentimizning 2020-yil 2 iyunda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlashning yangi mexanizmini joriy qilish to'g'risida"gi farmoni yurtimizda bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturilamal bo'ldi. Keyingi yillarda mamlakatimiz ko'pgina ustuvor reytinglarda yuqorilab borayotgani yurtimizda aholi turmush farovonligini oshirish, jamiyatimizda ochiqlik, oshkorlikni ta'minlash borasida qilinayotgan ezgu ishlarning muhim natijasidir. Masalan, yaqinda BMTning Sanoatni rivojlantirish tashkilotining - (YUNIDO) "Raqobatbardosh sanoat unumdonligi indeksi" bo'yicha hisoboti chop etildi. Unda mamlakatimiz ilk marotaba aks ettirilib, 152 ta mamlakat orasida 92-o'rinni, MDHga a'zo davlatlar orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 2-o'rinni egalladi. Aytish kerakki, bugun jamiyatimizdagi islohotlarning bosh maqsadi xalqimizni rozi qilishdek ezgu maqsadga yo'naltirilmoqda. Barcha sa'y-harakatlarimiz, islohotlarimiz, qabul qilayotgan qonun va qarorlarimiz zamirida ham ushbu maqsad mujassam. Aholi yuritilayotgan siyosatdan qanchalik rozi bo'lsa, turli reyting va indekslardagi o'rnimiz o'z-o'zidan oshib boraveradi. Xususan, iqtisodiyotda davlatning rolini kamaytirish, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sish istiqbollarini yaxshilashga qaratilgan bosqichma-bosqich islohotlar 2020 yilda Jahon bankining

“Biznes yuritish” indeksida 76-o'rindan 69-o'ringa ko'tarilishimizga, “Transparency International”ning Korruptsiyani qabul qilish indeksi hamda “World Justice Project”ning Qonun ustuvorligi indeksida mamlakatimiz o'mni yaxshilanishiga olib keldi. Shu bilan birga, bu yo'nalishda hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar talaygina. Prezidentimiz farmoni asosida davlat organlari faoliyati natijadorligini oliy, ya'ni parlament darajasida nazorat qilish belgilanganidan maqsad — bu borada vazirlik va idoralar rahbarlarining mas'uliyatini oshirishdir. Shu bois, xalqaro reyting va indekslar bilan ishslash bo'yicha respublika kengashi tashkil etildi. Oliy Majlis deputatlari va senatorlarining xalq tomonidan saylanishini inobatga oladigan bo'lsak, mazkur mexanizm sohadagi chora-tadbirlar ijrosi ustidan xalq nazorati o'rnatalganligini anglatadi. Bundan tashqari, ayrim reyting va indekslarda talab etilgan statistik ma'lumotlar respublikamizning davlat idoralari va tashkilotlari tomonidan shakllantirilgan statistik ma'lumotlar bazasiga asoslanadi. Masalan, BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da jami 206 ta milliy indikator tasdiqlangan. Davlat statistika qo'mitasi tomonidan yaratilgan maxsus saytga bu boradagi zarur ma'lumotlar doimiy ravishda joylashtiriladi. SHuningdek, xalqaro reyting va indekslar uchun kerakli ma'lumotlar davlat idoralari tomonidan muntazam yangilanib boriladi. Misol uchun, hukumat portali doirasida “Ochiq ma'lumotlar portalı” ishga tushirilgan. Mazkur portal Davlat statistika qo'mitasining davlat organlari va tashkilotlarining ochiq ma'lumotlar bazasi yuritilishi va yangilanishi, shuningdek, tegishli axborotlarning o'z vaqtida aks ettirilishini muvofiqlashtirib kelmoqda. Umuman olganda, xalqaro reyting va indekslarni yurituvchi tashkilotlar tadbirkorlar va aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalar natijalariga, nodavlat notijorat tashkilotlar ma'lumotlariga hamda milliy va xorijiy ekspertlar xulosalariga tayanadi. Bu esa, o'z navbatida, respublika miqyosida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalaridan mahalliy aholi va tadbirkorlar qay darajada xabardor ekanini ko'rsatib beradi. Xususan, mamlakatimizda so'z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalarining cheklov va to'siqlarsiz faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlar yaratildi. Ommaviy axborot vositalari uchun media bozorida teng sharoit yaratish va ularni yanada rivojlantirish hamda jurnalist va blogerlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida Milliy mass-mediani qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi tashkil etildi[1].

Qator sohalardagi o'zgarishlar bilan bog'liq qonunchilikning jadal rivojlanishi ayrim hollarda amaldagi qonun hujjalariiga zid bo'lgan ko'plab normalarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. SHuning uchun ham qonunchilikni tubdan qayta ko'rib chiqish, uni

tizimlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari sifatini oshirish, ijrosi monitoringini takomillashtirish maqsadida Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish kontseptsiyasi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida strategik manfaatlarini takomillashtirib borib, dunyoning turli joylarida va ayniqsa, Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlikni mustahkamlash sohasida xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan faol hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. O‘zbekistonning jahon mamlakatlari bilan iqtisodiy integratsiyalashuvi milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi, shuningdek, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishga, millatlar va elatlarning yaqinlashuviga, aholi turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Mamlakatlarning muayyan integratsion tashkilot doirasida birlashuvi, ular o‘rtasida mahsulotlar, xizmatlar va kapital harakati bilan bog’liq munosabatlarni rivojlantirishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda, mamlakatlar o‘rtasida yangi texnologiyalarning erkin tarqalishiga, ularning milliy iqtisodiyotlarda ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish jarayoniga joriy etilishiga qulay zamin yaratadi va pirovardida iqtisodiyot barqarorligiga erishishga ko‘maklashadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, jumladan, etakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishni davom ettirish, jalb qilingan xorijiy investitsiya va kreditlardan samarali foydalanish”[2] alohida ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning samarali bajaratishi tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro moliyaviy tashkilotlar bilan o‘zaro aloqalarni rivojlantirish mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini kuchaytirishni va mazkur sohaga qaratilgan chora-tadbirlarni faol tarzda amaliyatga joriy etishga bo‘lgan talabni kuchaytiradi.

O‘zbekistonda iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish siyosati avvalo, milliy iqtisodiyotning barqaror darajada o‘sishini ta’minlash hamda jahondagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishiga yo‘naltirilgan. Respublikamizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o‘sishini ta’minlash, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqargan holda jahon bozorlarida mustahkam o‘rin egallash, pirovardida aholi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan strategiya izchil amalga oshirilar ekan, bu maqsadlarga erishishda tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilmoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda O‘zbekiston Respublikasi davlat

idolarining, yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali hamkorlik o‘rnatishga, bunday hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan jami amaliy harakatlari tushuniladi. Hozirgi vaqtida Markaziy Osiyo mintaqasida rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lida tub ijtimony-iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Boshqaruvning ma’muriy-buruqbozlik tizimi asosan buzib tashlandi, bozor mexanizmlari ishga tushirildi, moliya va pul tizimlari shakllantirildi varivojlanmoqda, milliy valyutalari joriy etildi, mulkchilik munosabatlari tubdan o‘zgartirilmoqda, xususiy lashtirish keng ko‘lamda olib borilmoqda Umuman olganda ijtimoiy va siyosiy barqarorlik saqlanib qolmoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi milliy bozorlarning tarqoqligi va torligi, tashqi iqtisodiy siyosatning kelishilmaganligi, moliyaviy va texnologik resurslarning cheklanganligi sharoitida bugungi kunda xorijiy raqobatchilarning bosimiga qarshi turishga va ichki bozorni himoya qilishga qodir emas. Boz ustiga ushbu respublikalar iqtisodiy salohiyat darajasiga va ijtimoiy muammolar hal etilishi darajasiga ko‘ra bir-biridan ancha farqlanadi. Shu boisdan ham O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan integratsiyalashuvi mamlakat mintaqasida tashqi iqtisodiy aloqalar ta’siri samaradorligini oshirishga har tomonlama xizmat qiladi. Chunki, ushbu integratsion birlashuvning bir qator afzallikkleri mavjud. Markaziy Osiyo davlatlari integratsiyasi - qatnashchi mamlakatlarning ixtiyoriyligiga va ular tomonidan iqtisodiy ittifoqning qulayligi va zarurligi anglab etilishiga asoslangan evolyutsion jarayondir. Ushbu ittifoq qatnashchi mamlakatlarga iqtisodiyotlarning qo‘sishimcha qiyosiy ustunliklariga ega bo‘lish va dinamik iqtisodiy o‘sish traektoriyasiga kirish imkonini beradi. Bayon qilinganlarni jamlab transmilliy kompaniyalar, moliyaviy-sanoat guruhlari va erkin savdo zonalari barpo etish asosida Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston va O‘zbekistonning chuqur integratsiyasi iqtisodiyotlarimizning yuksalishi va barqaror jarayon uchun shart-sharoitlar yaratishni qayd etish zarur. Bundan tashqari, bu istiqbolda tugallangan tsiklli sanoatning etakchi tarmoqlarini va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish asosida Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyotining yagona kompleksini tashkil etish imkonini beradi hamda bizning davlatlarimizga xalqaro mehnat taqsimotida to‘laqonli qatnashish imkoniyatini yaratadi.

Qisqa qilib aytganda, integratsiya darajasi mintaqada ishlab chiqariladigan va iste’mol qilinadigan mahsulotlar turlari bilan belgilanadi. Istiqbolda yoqilg’i-energetika resurslari, mashinasozlik, shu jumladan kon qazish, metallurgiya, qishloq xo‘jaligi (irrigatsiya) asbob-uskunalarli ishlab chiqarish, donni qayta ishlash mahsulotlari, oziq-

ovqat kompleksi, ayniqsa don bozori sohasida hamkorlik va ishlab chiqarish kooperatsiyasi eng ko‘p rivojlanadi.

Rasulov, A. R. (2021). O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATI, O’ZGARISH VA MUAMMOLAR. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES, 2(2), 257-264. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00192>

Abstract ([http://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol\\_2\\_No\\_2/257-264\\_abstract.pdf](http://ares.uz/storage/app/media/2021/Vol_2_No_2/257-264_abstract.pdf))

1. <https://xs.uz/uz/post/khalqaro-rejting-va-indekslarda-samaradorlikning-eng-muhim-korsatkichlariga-erishish-ishlari-muhokama-qilindi>. “Xalqaro reyting va indekslarda samaradorlikning eng muhim ko‘rsatkichlariga erishish ishlari muhokama qilindi.”
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g’risida»gi Farmoni. PF-4947-son, 2017 yil 7 fevral. – O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami. 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Rasulov, A. R. (2021). O’zbekiston respublikasida ommaviy axborot vositalari faoliyati, o’zgarish va muammolar. academic research in educational sciences, 2(2), 257-264. <https://doi.org/10.24411/2181-1385-2021-00192>